



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



AHOLINING EHTIYOJMAND QATLAMLARINI ANIQLASH MEXANIZMLARI

Normurodov Diyorbek Muzaffar o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Davlat boshqaruvi yo'nalishi magistranti

+998932030210

muzaffarovichdiyorbek1@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu tadqiqot ishida aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash mexanizmlari ularni o'rganishning zamonaviy texnologiyalari shu bilan bir qatorda haqiqiy ehtiyojmand aholini aniqlash ularga ko'mak va qo'shimcha yordam berishning tizimli tahlili o'rganiladi. Tadqiqot davomida ehtiyojmand qatlamlarda uchrayotgan muammo va qiyinchiliklar ularning yechimlari ham o'rin oladi. Jamiyatimizda uchrayotgan ishsizlik va ta'lim darasi ayniqsa ehtiyojmand oilalarda uchrayotgan muammolar va ularning aholiga ta'siri batafsil tahlil qilinadi va ma'lum bir doirada yechim beriladi.*

Kalit so'zlar: *Ehtiyojmand aholi, moddiy yordam, ishsizlik, ta'lim darajasi, yangi mexanizmlar, ishsizlik qiyinchiliklari, moddiy rag'batlantirish, talab va taklif.*

ANNOTATION: *This research examines the mechanisms for identifying vulnerable segments of the population, modern technologies used to study them, as well as a systematic analysis of identifying genuinely needy individuals and providing them with assistance and additional support. During the study, the problems and difficulties faced by vulnerable groups and their possible solutions are also addressed. Issues of unemployment and education levels in society, particularly the problems observed in vulnerable families and their impact on the population, are analyzed in detail, and solutions are proposed within a defined framework.*

Keywords: *vulnerable population, financial assistance, unemployment, education level, new mechanisms, unemployment-related difficulties, material incentives, supply and demand.*

АННОТАЦИЯ: *В данном исследовании рассматриваются механизмы выявления уязвимых слоёв населения, современные технологии их изучения, а также проводится системный анализ определения действительно нуждающихся граждан и оказания им помощи и дополнительной поддержки. В ходе исследования освещаются проблемы и трудности, с которыми сталкиваются уязвимые группы населения, а также возможные пути их решения. Подробно анализируются вопросы безработицы и уровня образования в обществе, особенно проблемы, характерные для нуждающихся семей, и их влияние на население, после чего в определённых рамках предлагаются пути решения.*





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ключевые слова: уязвимые слои населения, материальная помощь, безработица, уровень образования, новые механизмы, трудности, связанные с безработицей, материальное стимулирование, спрос и предложение.

Ushbu tadqiqotda jamiyatimiz rivojlanayotgan bir paytda aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash ularga moddiy ko‘mak va yordam berish masalasi o‘rganiladi.

Aholining ehtiyojmand qatlami deganda daromad darajasi juda past, ijtimoiy himoyaga muhtoj, o‘z ehtiyojlarini mustaqil ravishda to‘liq qondira olmaydigan shaxslar va oilalar nazarda tutiladi. Bunga kam ta‘minlangan oilalar, ishsizlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, yolg‘iz keksalar, ko‘p bolali oilalar va vaqtinchalik ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan aholining turli guruhlari kiradi. Ushbu qatlamlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash jamiyatda ijtimoiy adolatni ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ehtiyojmand aholi orasida jamiyatga va davlatga bo‘lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

Aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlashda davlat tomonidan bir nechta asosiy mexanizmlar qo‘llaniladi. Eng muhim mexanizmlardan biri bu daromadlarni baholash tizimidir. Bu usulda oilaning umumiy daromadi, uning a‘zolari soni va yashash minimumi bilan solishtiriladi va o‘rganiladi. Agar daromad belgilangan minimal darajadan past bo‘lsa, oila ehtiyojmand deb e‘tirof etiladi va qo‘shimcha yordam ko‘rsatiladi.

Ikkinchi muhim mexanizm ijtimoiy holatni baholashga asoslangan yondashuvdir. Unda shaxsning mehnatga layoqati, sog‘lig‘i, bandlik holati, ta‘lim darajasi va ijtimoiy xavf omillari inobatga olinadi va uning turmush darajasi o‘rganiladi. Masalan, doimiy ish joyiga ega bo‘lmagan yoki sog‘lig‘i sababli ishlash imkoniyati cheklangan shaxslar alohida e‘tiborga olinadi va ularga ish bilan ta‘minlash yoki boshqa ko‘maklar ko‘rsatiladi.

Uchinchi mexanizm — mahalliy darajadagi baholash va monitoring tizimidir. Bu jarayonda mahalla, fuqarolar yig‘ini va ijtimoiy xodimlar ehtiyojmand oilalarni aniqlashda ularning yashash sharoitlarini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Mahalliy organlar aholining real yashash sharoitlarini yaxshiroq bilishi sababli bu mexanizm amaliy jihatdan samarali hisoblanadi. Ammo bu tizim ham to‘la darajada o‘zini oqlamaydi sababi, mahalla oilanining yoki fuqaroning yashash darajasi va uning holatini to‘liq o‘rganmasdan unga baho berishi mumkin va bu aholi o‘rtasida ishonchsizlikning oshishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga mazkur farmonga muvofiq Agentlik tomonidan respublikadagi 9 milliondan ortiq ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga xizmat ko‘rsatish tashkil etildi.

Yaqin yillarda ehtiyojmand qatlamlarni aniqlashda raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Elektron reyestrlar, yagona ma‘lumotlar bazalari va raqamli platformalar yordamida aholining ijtimoiy holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tizimlashtiriladi va yagona hujjat holida o‘rganiladi. Bu esa inson omili ta‘sirini kamaytirish, shaffoflikni oshirish va noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishining oldini olishga xizmat qiladi va fuqarolarning bilim darajasini oshirishga ularga moddiy ko‘mak berishga qaratiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Shuningdek, raqamlashtirish ijtimoiy yordam ko‘rsatish jarayonini jadal tezlashtiradi va davlat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Ma’lumotlar almashinuvi soliq, bandlik, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimlari bilan integratsiya qilinishi ehtiyojmand aholini yanada aniq aniqlashga yordam beradi va ularning ta’minot darajasini o‘rganadi. Davlat aholining ayniqsa ehtiyojmand aholining sog‘lig‘iga alohida etibor bermoqda davlatda sog‘liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiy xizmatlar sifatini va samaradorligini oshirish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni izchillik bilan davom ettirish hamda aholi salomatligini saqlash borasida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha ulkan ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar ham yagona baholash mezonlarini qo‘llashni qiyinlashtiradi. Ayrim hollarda mahalliy darajadagi subyektiv yondashuvlar shaffoflikka putur yetkazishi mumkin bo‘ladi. Aholining ehtiyojmand qatlamlariga o‘z navbatida penionerlar ham kiradi va bu O‘zbekistonda keksalik pensiyasi tizimi uchta asosiy omil bilan belgilanadi: pensiya yoshiga yetish, eng kam ish staji (badallar to‘langan yillar) va pensiya miqdori. O‘zbekistonda hozirgi kunda pensiya yoshiga yetish talabi erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun esa 55 yoshni tashkil etadi. To‘liq pensiya olish uchun erkaklar kamida 25 yil, ayollar esa kamida 20 yil ish stajiga ega bo‘lishi lozim. Bu ham aholining davlat tomonidan etibori sirasiga kiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada daromadlarni aniqlash usullarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish zarur.

Shuningdek, mahalliy darajadagi baholash mexanizmlarini markazlashgan ma’lumotlar tizimi bilan uyg‘unlashtirish, ijtimoiy xodimlarning malakasini oshirish va aholining ijtimoiy ongini yuksaltirish muhim vazifalardan biridir. Ana shundagina ijtimoiy yordam haqiqiy ehtiyojmandlarga yetib boradi va jamiyatda ijtimoiy adolat ta’minlanadi va aholi yashash darajasidan mamnun bo‘ladi. Turli tizimlarda ishlaydigan ijtimoiy ishchilar ehtiyojmand shaxslarning ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan huquqlarini himoya qiladi va shu bilan ularning yashash uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolibov B.X. Ehtiyojmand toifadagi aholi qatlamlariga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarni samarali tashkil etishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va xorij tajribasi // International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). – 2024. – Jild 7, son 6. – 266-bet. – DOI: 10.5281/zenodo.12111242.
2. Asian Development Bank. Overview of Social Protection System in Uzbekistan and Assessment of Active Labor Market Policies // Technical Assistance Consultant’s Report. – Manila: Asian Development Bank, 2019. – Project No. 52012-001. 3-bet.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



3. Ametova, F. R. (2025). Changes in The Social Protection of The Population in The Republic of Uzbekistan and Their Development. Journal of Community, Law and Diplomacy Sciences, Vol. 2, No. 1, pp. 1–6. <https://sociometrics.us/index.php/jclds>
Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).
<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>
4. O'zbekistonda Ijtimoiy himoya yo'nalishlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari Shokirov Jahongir Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, I-92 guruh talabasi
5. "O'zbekiston Statistika Axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali statmirror.uz 2023 1(15) son UDK: 575.1 93-bet.

